

O‘zbekistonda transport logistikasi zarurati

Azimjon Eshonqulov | Azimjon.uz@gmail.com

Huquqshunos

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yuk tashish va logistika xizmatlarini rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Unda ta’kidlanishicha, logistika nafaqat yuklarni bir nuqtadan boshqasiga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab xizmatlar zanjirini o‘z ichiga oladi. Samarali logistika tizimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada O‘zbekistonda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistika xizmatlarini yaxshilash maqsadida xalqaro savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan so‘nggi siyosiy tashabbuslar tahlil qilinadi. Unda ta’kidlanishicha, mustahkam infratuzilmani, shuningdek, huquqiy bazani va hukumatlararo kelishuvlarni yanada rivojlantirish O‘zbekistonning mintaqaviy logistika markazi sifatidagi salohiyatini to‘liq ochishda muhim omil bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: : xlogistika, yuk tashish, O'zbekiston, infratuzilma, diversifikatsiya, mintaqaviy markaz, Nusxalash

Bugungi kunda yuk tashish munosabatlari toboro kengayib bormoqda. Bu xizmat turi bir davlat chegaralari bilan boglanib qolmagan. Aksincha uning imkoniyatlari va doirasi o'ziga xos tarzda keng. Yuk tashish masalasida yuk turi, unga qo'yiladigan talablar bu aysbergning ko'rinish nuqtasi xolos. Aksincha bugungi kunda transport logistikasi ko'plab xizmatlar zanjiri bilan boglik. Ularning bir turi uzilishi albatta keyingi shartnomaviy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Aslini olganda yuk jo'natuvchi, tashuvchi, tashishni tashkil etuvchidan tortib mijoz-iste'molchiga yetib borugga qadar bo'lgan xizmatlar ketma-ketligi logistika xizmatlarini umumko'rinishi sifatida baholash mumkin.

Ayrim mualliflar logistika tizimi turli elementlarni birlashtiradigan eng murakkab va ayni paytda yaxshi ishlaydigan mexanizmlardan biridir^[1].

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida tovar, ish, xizmat bozorining o'rni katta. Logistika xizmati esa turli transport vositalarida yuk tashish va uni iste'molchiga yetkazib berishda juda muhim ahamiyatga ega. Logistika xizmatining samaradorligi mamlakat ichki bozorida tovarlarni ishlab chiqarishdan tortib iste'molchiga yetib borishidagi xizmatlar harakatining optimallashtirish, xaridorlar uchun qulay shart-sharoit va nisbatan iste'molchi uchun qulay bahoda yetkazib berilishini ta'minlaydi, shu bilan birga bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Logistika xizmati nafaqat ichki bozor, balki tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birgalikda yuk tashish munosabatlarida va ularga xizmat ko'rsatishda xalqaro integratsiya jarayonini kengaytiradi.

Ayrim mualliflarning ta'kidlagicha global iqtisodiy makonda logistika nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki global iqtisodiy makonda integratsiyalashuvni ham kuchaytiradi^[2].

Darhaqiqat mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishida transport kommunikatsiyalarining ahamiyati nafaqat tovarlarni bir joydan ikkinchi joyga yetkazish, balki mamlakatda aholining muayyan qatlamini ish bilan ta'minlash, o'qitish, kasbga qayta tayyorlash, ilm-fan, sog'liqni saqlash, turizm sohalariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa aholining ehtiyojlarini qanoatlantirish borasida bir mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan qanoatlantirish imkoni bo'lmaganligi bois, bu borada ustuvor vazifalarni belgilab olish zarur bo'ladi.

Transport logistikasi bugungi kunda umuman transport infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l transporti, avtomobil transporti, aviatsiya transporti sohasida tashkil etilayotganligi uning yagona shaklga solish yoki yagona tizimda ko‘rish masalasida murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda logistika xizmati sohasida qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, yuksak xalqaro talablar va standartlarga mos keladigan milliy transport tarmog‘ini rivojlantirish sohasida yagona kompleks strategiyani ishlab chiqish, respublika mahsulot ishlab chiqaruvchilarining o‘z mahsulotini mintaq va jahon bozorlariga istiqbolda olib chiqish talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning xalqaro transport kommunikatsiyalariga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2017 yildagi “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3422-son Qarori^[3] logistika markazlari va TIR-parklar tarmog‘ini tubdan rivojlantirish, avtotransport vositalari va havo kemalari parkini kengaytirish hamda ularni sifatli yonilg‘i-moylash materiallari bilan o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ta‘minlash borasida katta huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Logistikani faqatgina yuk tashishni tashkil etish sifatida tushunish xato bo‘ladi. Bu bojxona samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashimalarni tashkil qilish osonligi, soha mutaxassislarining bilim va salohiyati, yuklarni kuzatish imkoniyati va yuklarni o‘z vaqtida yetkazish darajasi kabi me‘zonlarga bevosita bog‘liq.

Bundan tashqari logistika nafaqat biznes, balki ijtimoiy sohani rivojiga ham katta xizmat ko‘rsatishi tabiiy. Masalan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro ko‘p funksiyali transport-logistika xabini tashkil etish to‘g‘risidagi" 288-sonli qarori bilan BMT, xorijiy davlatlar va tashkilotlar tomonidan Afg‘oniston va boshqa davlatlarga gumanitar yordamni tizimli va markazlashgan ravishda yetkazish maqsadida Transport-logistika xabi tashkil qilingan^[4].

Bu borada mamlakat tomonidan qabul qilinayotgan normativlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, logistikani yuk tashish bilan bog‘lab qolmasdan u bilan bog‘liq infratuzilmalarni kengaytirish, savdo logistikalarini tashkil etish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2022 yildagi “Xizmatlar sohasini

rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-104-son qarori qabul qilingan^[5].

Logistika samaradorligini oshirish O‘zbekiston uchun dolzarbligining yana bir asosi mamlakat xududining dengiz bilan bog‘liq emasligidir. Ayrim janubiy mamlakatlar bilan xatto temir yo‘l bog‘lanmasi ham mavjud emas. Shu bois turli ob‘yektiv to‘siqlar ichki va xalqaro logistikani rivojiga o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat, mashinasozlik kabi ko‘plab sohalarda milliy brendlar asosida ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘ygan. Ularni boshqa xududlarga yetkazish esa samarali xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois ham turli davlat dasturlari, xalqaro hamkorliklar orqali logistikani rivojiga turtki bo‘ladigan loyihalarni ilgari surmoqdamiz. Masalan, “bir makon-bir yo‘l” kabi transport karidorlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari xususiy yo‘llar bilan ham logistikani kengaytirish borasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, FESCO transport guruhi «O‘zbekiston temir yo‘llari» va «O‘ztemiryo‘lkonteyner» bilan hamkorlikda intermodal xizmatlaridan foydalangan holda Qirg‘izistondan Xitoyga hamda Turkmanistondan Turkiya, Afrika va O‘rta yer dengizi mamlakatlariga tranzit yo‘llarni ishlab chiqish, FESCO transport guruhi O‘zbekiston transport infratuzilmasini va logistika tarmog‘ini raqamlashtirish sohasidagi loyihalarni rivojlantirishda ishtirok etishni rejalashtirmoqda^[6].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda transport logistikani rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Lekin uning huquqiy asoslarini yaratish, xukumatlararo va xalqaro normativlarni tahlil qilgan holda ratifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari yetarli infratuzilmaga ham jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Bu esa mamlakat eksport-import salohiyatni kengaytirish, turli transport va kutilmagan xarajatlarini kamaytirish, xalqaro va mahalliy bozordagi transport xarajatlarini minimallashtirish, shu bilan birgalikda aholining katta qismini ish bilan ta‘minlagan holda ularning farovonligini yanada oshirish aynan logistika samadorligiga bog‘liq.

Adabiyotlar

[1]

<https://cyberleninka.ru/article/n/transport-logistikasi-tizimini-tashkil-etishning-iqtisodiy-ahamiyati/viewer>

[2] Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т. Развитие логистических центров в Узбекистане // Потенциал современной науки. 2017, № 1 (27).

[3] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2017 й.,
07/17/3422/0349-сон

[4] <https://lex.uz/pdfs/6077478>

[5] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.01.2022 й.,
07/22/104/0077-сон

[6]

https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-logistika-yonalishlari-yanada-rivozhlanadi_548096?q=%2Fposts%2Fozbekistonda-logistika-yonalishlari-yanada-rivozhlanadi_548096